

ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI MINIMALLASHTIRISH SHARTLARI VA KORXONANING ZARARSIZ ISHLASH HISOBLASH YO'LLARI

Jumaboyev Mirjalol

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti talabasi.

Telefon raqami: +998771596202

E-mail: jmirjalol90@gmail.com

Assistent: Raxmatullayev Umarbek

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish jarayonida yuzaga keladigan ichki qarama-qarshiliklar hamda ularni samarali boshqarish mexanizmlari ilmiy tahlil qilinadi, jumladan tezisda ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish shartlari va korxonaning zararsiz ishlash hisoblash yo'llarining bir qator nazariy, amaliy vizual usullari o'rganiladi. Tadqiqot uchun O'zbekiston sanoat korxonalari misolida so'rovnomalar va iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili amalga oshirildi.

Kalit so'zlar. break-even usuli, mahsulot tannarxi, sanoat o'sishi, tashqi investitsiya, xarajatlarni optimallashtirish.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini samarali boshqarish va ularni optimallashtirish, rivojlantrish bugungi raqobatbardosh bozor sharoitida eng dolzarbva muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mahsulot tannarxini pasaytirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va ishlab chiqarish jarayonini yuqori darajada samarali va izchil tashkil etish korxonaning moliyaviy barqarorligi va bozor raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu bois ishlab chiqarish xarajatlarini to'liq va izchil tahlil qilish, ularni ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha ajratib o'rganish zamonaviy ishlab chiqarish boshqaruvining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Hozirgi kunda korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish boarsida bir qator amaliy ishlarni amalga oshirdi. Masalan korxonada inson qilishi mumkin bo'lgan og'ir ishlarni yangi yaratilgan texnologiyalarni joriy etdi, tejamkorlik texnologiyalari yaratildi, ilmiy-salohiyatli kadrlar bazasini shakllantirdi va boshqa bir qator ishlar amalga oshirildi.


Mazkur tezisda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini bosqichma-bosqich tahlil qilishning nazariy asoslari, mavjud muammolar, ilg'or tajribalar va ularni bartaraf etish yo'llari chuqur o'rganiladi. Shuningdek, real korxona misolida xarajatlarni tahlil qilish natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan takliflar

shakllantiriladi. Shuningdek ushu tezisda ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish zararsiz ishlash nuqtasi (break-even) usullari o'rganiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini maksimallashtirish masalalari iqtisodiyot va menejment sohasida keng o'rganilgan. M. Porter (1985) o'zining "Competitive Advantage" asarida xarajat ustunligini raqobat strategiyasining asosiy elementi sifatida ko'rsatib, samarali xarajat boshqaruvi korxonalarga bozor raqobatida ustunlik berishini ta'kidlaydi. Ushbu nazariy yondashuv ishlab chiqarish jarayonlaridagi xarajatlarni boshqarish va optimallashtirishning iqtisodiy o'sishdagi rolini tushunishda muhim asos hisoblanadi.[1] Xalqaro moliyaviy tashkilotlar ham ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tadqiq qilgan. Masalan, IMF (2021) monopolistik bozor sharoitlarida yuqori ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etgan bo'lsa, OECD (2022) raqamli texnologiyalarni joriy etish va samarali boshqaruv orqali xarajatlarni nazorat qilish iqtisodiy o'sishni 1,5–2% ga oshirishini ta'kidlaydi. McKinsey Global Institute (MGI, 2021) esa raqamlashtirish va resurslardan tejamkor foydalanish orqali sanoat tarmoqlarida mahsuldorlikni 20–30% ga oshirish mumkinligini ko'rsatdi[2,3,4]

Korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirishda mahsulot tannarxi asosiy strategiya hisoblandi. Jumladan, mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida eksport salohiyatini yuksaltirish va milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish ham ko'p jihatdan tejamkorlikka erishish, hamda mahsulot va xizmatlar tannarxini pasaytirishga bog'liq.[5, 6, 7]. Shunga ko'ra, prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2019 yilning 12 martida Nurota tumanidagi "Marmarobod" korxonasida tog' jinslaridan mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishar ekan, quyidagi fikrini alohida ta'kidlab o'tdi: "Mahsulot tannarxini kamaytirish orqali jahon bozoriga chiqish kerak". Buning isboti sifatida quydagi raqamlarni keltrish mumkun joriy yilning yanvar-iyun oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 4 885 tani tashkil etib, ular tomonidan 5 669,0 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 36,4 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi. [8]. So'ngi 3-4 yillikda O'zbekistonda bu borada bir qator tendensiyalar kuzatilgan. Sanoat o'sishi va iqtisodiy dinamikaning o'zgarishi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, tashqi investitiya oqimini oshirish kabi bir qator tendensiyalar kuzatilgan. Bu tendensiyalarning asosiy maqsadi shuki, ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish qaratilgan. Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda O'zbekistonda sanoatda 2023-2024-yillikda o'rtacha hisobda 35% o'sish kuzatilgan. Lekin ayrim taxminlarga ko'ra bu yil sanoatda o'sish 2024-yildagidan past bo'lishi mumkin deyilgan. 2023-2024-yillikda sanoat o'sishi quyidagi grafikda berilgan:

1-jadval



Demak, statistikdan ko'rsak bo'ladiki, O'zbekistonda sanoat o'sishida tendensiya ancha barqaror. Garchi 2025 yilgi ko'rsatkich o'tgan yilgi ko'rsatkichdan past bo'lsada, bu ma'lumot dastlabki 9 oylikga tegishli. Yil yakuni bo'yicha bu yilgi ko'rsatkich o'tgan yilgi ko'rsatkichlarga yaqinlashishi mumkin.

Ushbu tadqiqotdan shunday xulosaga kelsak bo'ladiki, Yuqoridagi tahlil va muhokamalardan kelib chiqib, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini bosqichlab tahlil qilish va ularni optimallashtirish zamonaviy ishlab chiqarishni samarali boshqarishning ajralmas qismi ekanligi ilmiy asoslandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xarajatlarni xarajat markazlari va ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha ajratib tahlil qilish korxonaning moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish, ortiqcha xarajatlarni bartaraf etish va mahsulot tannarxini pasaytirishga imkon yaratadi. Jumladan, O'zbekistonda ham ishlab chiqarishda xarajatlarni minimallashtirish borasida olib borilayotgan ishlar ijobiy degan xulosga kelish mumkin.

Foyadanilgan adabiyotlar:

1. Porter, M. E. (1985). Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance. Free Press.
2. International Monetary Fund. (2021). World Economic Outlook: Recovery during a pandemic. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO> (2022)

¹ www.stat.uz

3. OECD. (2022). Digital transformation and economic performance: Evidence from OECD countries. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org>
4. McKinsey Global Institute. (2021). The future of productivity: Digital transformation in industry. <https://www.mckinsey.com/mgi>
5. Tashpulatov, A. (2020). Modern forms of self-employment under conditions of recession. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 452-455.
6. Tolibjonovich, N. O. (2020). Global Economic Crises: The Global Economic Crisis In The Context Of The Coronavirus Pandemic And Its Elimination In Uzbekistan. Solid State Technology, 63(4), 5131-5145.
7. Фозилов, Х. Р., & Фозилов, И. Р. (2020). ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ ПРЕДПРИЯТИЕМ. In ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ И ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ (pp. 16-19)
8. Tohirovich, Q. N. (2021). International financial accounting standards in Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 328-333.